

## TURIZMNI MAMLAKAT VA HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada turizmning mamlakat va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirishdagi o'rni va ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning "turizm" tushunchasiga bergan ta'riflari, turizmni yalpi ichki mahsulotga (iqtisodiy o'sish), mamlakatni savdo va to'lov balansiga, eksport va importga, davlat budjeti, investitsion faollikka, iqtisodiyot tarmoqlariga, yalpi daromad va bandlik, biznes muhitga, yashil va raqamli iqtisodiyotga ta'siri va boshqa makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda turizmning hududiy rivojlanishdagi roli, uning investitsiyalar jalg qilishdagi ahamiyati va mahalliy tadbirdorlikni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, turizmning barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola turizm sohasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar, iqtisodiyot va hududiy rivojlanish sohalari bo'yicha mutaxassislar hamda turizm siyosatini shakllantiruvchi qaror qabul qiluvchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** turizm, turizm bozori, turizm industriyasi, ichki turizm, turistik salohiyat, turizm xizmatlari, turistik mahsulot.

**Annotatsiya.** В данной научной статье научно обоснованно анализируется роль и значение туризма в социально-экономическом развитии страны и регионов. В статье рассматриваются определения понятия «туризм», данные отечественными и зарубежными учеными, а также влияние туризма на валовой внутренний продукт (экономический рост), торговый и платежный баланс страны, экспорт и импорт, государственный бюджет, инвестиционную активность, экономические отрасли, совокупный доход и занятость, деловую среду, зеленую и цифровую экономику, а также другие макроэкономические показатели. В исследовании анализируется роль туризма в региональном развитии, его значение в привлечении инвестиций и поддержке местного предпринимательства. На основе результатов исследования разработаны научно-практические рекомендации по обеспечению устойчивого развития туризма.

Статья представляет теоретический и практический интерес для исследователей в области туризма, специалистов по экономике и региональному развитию, а также для лиц, принимающих решения в сфере туристической политики.

**Ключевые слова:** туризм, туристический рынок, туристическая индустрия, внутренний туризм, туристический потенциал, туристические услуги, туристический продукт.

**Annotation.** This scientific article provides a research-based analysis of the role and significance of tourism in the socio-economic development of a country and its regions. The paper examines the definitions of "tourism" given by local and foreign scholars, as well as the impact of tourism on gross domestic product (economic growth), the country's trade and payment balance, exports and imports, the state budget, investment activity, economic sectors, total income and employment, the business environment, the green and digital economy, and other macroeconomic indicators. The study analyzes the role of tourism in regional development, its importance in attracting investments, and its contribution to supporting local entrepreneurship. Based on the research findings, scientific and practical recommendations for ensuring sustainable tourism development have been proposed.

This article is of theoretical and practical significance for researchers in the field of tourism, specialists in economics and regional development, as well as policymakers in tourism policy.

**Keywords:** tourism, tourism market, tourism industry, domestic tourism, tourism potential, tourism services, tourism product.

### Kirish.

XVI asrda turizm jahon iqtisodiyotiga eng tez rivojlanayotgan keng tarmoqli tizimlardan biriga aylanmoqda. Jahon turizmida kuzatilayotgan va ko‘zda tutilayotgan tub o‘zgarishlar olimlar va mutaxassislar tomonidan qayd etilgan o‘ziga xos fenomen bo‘lib, unga bo‘lgan e’tibor va qiziqish ortib bormoqda. Turizm mamlakat va mintaqalarni barqaror rivojlanishini ta’minlash va aholi turmush darajasini oshirishning drayveri sifatida qaralmoqda. Bu o‘rinda muhtaram O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevni 2023-yil 16-sentabrda Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasini ochilishidagi nutqlarini ko‘rsatib o‘tish lozim. “Turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli tarmoqlaridan hisoblanadi. Ko‘plab davlatlar hozirgi murakkab vaziyatda o‘z iqtisodiyotini tiklash va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda turizm sohasiga tayanmoqda. Turizm mamlakatlarimiz umumiy farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta’minlashning muhim omilidir desak mubolag‘a bo‘lmaydi”.

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, oxirgi yigirma yilda (2000-2022-yillar) dunyoda turizmni o‘rtacha yillik o‘sishi 6-7 foizni tashkil etgan. Dunyo milliy daromadini 15,0 foizga yaqini, eksportni 8,0 foizi ushbu tizimga to‘g‘ri kelmoqda. Ayrim xorijiy davlatlar iqtisodiyotida turizmning ulushi 50,0 foizdan ortiq. Jumladan, Vengriyada 61,0 foiz, Gresiyada 50,0 foiz, Turkiyada 35,0 foiz, Misrda 30,0 foizga teng. Turizm sohasida band bo‘lganlar soni 320 mingga yaqin bo‘lib, dunyodagi umumiy bandlikning 10,0 foizini tashkil qilmoqda. 2022-yilda deyarli bir milliard turist xorijga sayohat qilgan.

### Adabiyotlar sharhi.

Amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot avvalambor bir qator turizm sohasidagi iqtisodiy kategoriyalar, atamalar, terminlar to‘g‘risidagi shakllangan ilmiy-nazariylarga bo‘lgan muallif munosabatini aniqlash, ayrimlari bo‘yicha o‘z fikr va qarashlarni bayon etish maqsadga muvofiq. Tadqiqot obyekti va subyektidan kelib chiqqan holda asosiy e’tibor “turizm”, “turizm tizimi”, “turizm industriyasi”, “turizm bazalari”, “turizm turlari” kabi iqtisodiy kategoriyalarga qaratilgan. Hozirda olimlar va mutaxassislar o‘rtasida “turizm” tushunchasi bo‘yicha yagona fikrga kelinmagan.

Birlashgan mamlakatlar tashkiloti (BMT) ta’rifiga ko‘ra, “turizm bu faol dam olish orqali sog‘liqni yaxshilash, inson taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida insonni o‘z yashash joyidan boshqa joyga borishidan iborat”<sup>1</sup>.

Manila deklaratsiyasiga muvofiq, turizm - inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u davlatlarni ijtimoiy, madaniy, ta’lim, iqtisodiyot va xalqaro munosabatlar sohalariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasini 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan “Turizm to‘g‘risidagi” qonunda “turizm” terminiga quyidagicha ta’rif berilgan. Turizm jismoniy shahsning vaqtincha bo‘lish mamlakatdagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullayotgan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi).

M.I.Astaxova turizmga quyidagicha ta’rif bergan. “Turizm sayohatchilarini vaqtinchalik va o‘z xohishlariga ko‘ra yashash joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq xizmatlar yig‘indisidan iborat”<sup>2</sup>. I.T.Balabanov turizmni aniq tushinchasi quyidagi iqtisodiy qarashlar bilan belgilanadi: “Aholini turli turistik sayohat yo‘nalishlariga harakatlanishi; belgilangan joyga borishi va u yerda to‘xtashi; doimiy yashash joyidan chiqishi; malum vaqtidan so‘ng o‘z uyiga qaytishi; foyda olishga qaratilmagan sayyoohlilik faoliyati”<sup>3</sup>.

O‘rganilgan ilmiy adabiyotlarda olimlar tomonidan taklifi e’tilgan turizm tushunchasi ayrim iqtisodiy kategoriyalarni qo‘sish yoki qisqartirish hisobiga turlicha talqin qilingan, bir qator

<sup>1</sup> Багалубов В.С. Экономика туризма. - Москва, Академия, 2005. - 4 с.

<sup>2</sup> Астахова М.И. Виды и тенденции развития туризма. - Москва. Навоий век, 2017. - 4 с.

<sup>3</sup> Балабанов И.Т. Экономика туризма. - Москва, Финансы и статистика, 2013. – 15 с.

omillarni ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Umumlashgan holda turizm bu inson salomatligini tiklash uchun sayohat qilish faoliyati, deb aytish mumkin.

### Tadqiqot metodologiyasi.


Maqolada turizmni tahlil qilishda sistemali yondashuv, iqtisodiy va komparativ tahlil, statistik tahlil, ekspert baholash hamda innovatsion yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Xususan, makro-, mintaqaviy va mikroiqtisodiy darajadagi tahlillar orqali turizmning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga integratsiyasi o'r ganilgan.

### Muhokama va natijalar.

Turizm industriyasini yana bir sinonimi bu turistik xizmatlar yoki turizm bozoridir. Turizm bozorining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mamlakatlararo, mamalakat, mintaqalar (Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar) miqyosida turistik xizmatlarni amalga oshirilishishiga qaratilgan iqtisodiy munosabatlar tizimi;
- shakllangan bozorda turistik mahsulotni pulga va teskari jarayon pulni turistik mahsulotga aylanishi;
- turistik mahsulotni sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy mexanizmni amal qilish;
- talab va taklif o'rtasidagi aloqalarni amalga oshiruvchi ko'pgina vositachi firmalar va tashkilotlarni mavjudligi;
- turizm bozorida talabni shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni (to'lov qobiliyati, maqsad va istaklar, o'rta sinf darjasи, sayyoohlarni jinsi, yoshi va boshqalar) etiborga olish zaruriyati;
- turistik bozorda taklifni ma'lum hududga bo'lishi, unga yetib borishda vaqtini sarflanishi;
- turizm bozorida taklifni shakllanishida hududlarda mavjud salohiyatni mavjudligi va uni raqobatbardoshligini baholash.

Olimlar va mutaxassislar o'rtasida turizm bozori turlari va ularni guruhlarga ajratish bo'yicha ham turli qarashlar va fikrlar mavjud. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan turizm turlarini maqsadli guruhlarga ajratish bo'yicha berilgan taklif va mulohazalarni tanqidiy o'rgangan holda o'zimizni turizm bozori turlari tizimi ishlab chiqilgan. (1-rasm).



**1-rasm. Mamlakat va mintaqalarda turizm bozori turlarini shakllanish tizimi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.

Turizm oqimini shakillanishiga muvofiq, uni asosan ikkita yirik tashqi va ichki turizm guruhlariga ajratiladi. Xalqaro turizmni xorij mamlakatlardan kelayotgan sayyoohlar (eksport) va mamlakatimiz sayyoohlarini xorij davlatlarga tashrifi (import) tashkil etadi. Ichki turizm mamlakat va mintaqalar miqyosida mahalliy sayyoohlar oqimini shakllanishidan iborat.

Turizmni shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy tadqiqot, boshqaruv obyektlari sifatida makro va mikro (firmalar va tashkilotlar) guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Bunday guruhlash turizmni ushbu yo'nalishlarda rivojlanishini tartibga solishni, iqtisodiyot fanida aniq turizm sohasida uchta mutaxasislik bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Ichki turizm bilan ko'proq bog'liq bo'lgan yo'nalishlar sayohatchilar yoshiga qarab maktabgacha ta'lif muassasalari tarbiyalanuvchilari, yoshlar, mehnatga layoqatililar va qariyalar bo'yicha guruhlarga ajratish bevosita amaliy ahamiyatga ega. Muhim turizm turlarini shakllanishi jamiyatni ijtimoiy guruhlarini e'tiborga olish bilan bog'liq. Bular o'rtalig'ida vakillari, oilaviy guruhlar va alohida shahslarga qaratilgan turizm bozorini rivojlanishidan iborat.

O'zbekistonda turizmga bo'lgan talab va mavjud turistik salohiyatdan kelib chiqqan holda, turizm xizmatlarini ziyorat, ekologik, rekreatsion (gastronomik) va boshqa bir qator ixtisoslashgan turizm turlariga ajratish mumkin. Sayyoohlarni harakatlanishi bilan bog'liq turizm turlari velosipedda, otda, suvda, havo yo'llari, temir yo'llari va boshqa vositalardan foydalanish bo'yicha guruhlarga taqsimlash imkonibor. Turizm xizmatlari turini guruhlash tizimini yanada davom ettirish mumkin. Masalan sayohat muddati, rasmiy va norasmiy, chegara hududlari bo'yicha guruhlarga ajratishi imkonibor. Eng asosiysi turizm bozori turlarini maqsadli guruhlarga ajratish turizmni chuqurroq tahlil qilish, aniq chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, kelajakdag'i rivojlanishni ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda uslubiyot sifatida foydalanish lozim.

Turizm juda murakkab jarayon, turli sohalar, tarmoqlar, tashkilotlar, korxonalar va aholini qamrab olgan o'ziga xos iqtisodiy kategoriyaadir. Uni shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq ilmiy yo'nalishlar olimlar va mutaxassislar tomonidan keng tahlil qilib kelinmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqotning obyekti va subyekti, qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda turizmni mamlakat va mintaqalar doirasida rivojlanishini hali chuquroq o'r ganilmagan bir qator ilmiy-nazariy asoslariga e'tibor qaratilgan. Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan transformatsion va institutsion o'zgarishlar, iqlim va ekologiyani ta'sirini kuchayishi, turli tahdidlar hamda xavf-xatarlarni mavjudligi raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarga o'tish zaruriyatidan kelib chiqqan holda turizmni barqaror iqtisodiy o'sishga va aholi farovonligini ta'minlashdagi o'rmini aniqlashtirish juda dolzarb ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etmoqda. Turizmni mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini turli hududiy darajada ta'sirini aniqlash orqali asoslash mumkin. Ular makroiqtisodiyot (mamlakat) mintaqaviy iqtisodiyot (viloyat, shahar, tuman) va mikroiqtisodiyotni (bevosita turistik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar) qamrab olgan tizimlardan iborat (2-rasm).


Hozirda turizmni makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajadagi ta'siri olimlar va mutaxassislar tomonidan keng o'r ganilgan. Ayniqsa, turizmni makroiqtisodiy ta'sirini aniqlashga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib berilgan. Jumladan, turizmni yalpi ichki mahsulotga (iqtisodiy o'sish), mamlakatni savdo va to'lov balansiga, eksport va importga, davlat budgeti, investitsion faollikka, iqtisodiyot tarmoqlariga, yalpi daromad va bandlik, biznes muhitga, yashil va raqamli iqtisodiyotga ta'siri va boshqa makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri o'r ganilgan<sup>1</sup>.

Mikroiqtisodiyot yo'nalishida ham bor qator ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar amalga oshirilgan<sup>2</sup>. Ushbu tadqiqotlar asosan turistik faoliyat olib, firma va tashkilotlar, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari, sanatoriya va kurort muassasalari, dam olish tashkilotlar, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari, sanatoriya va kurort muassasalari, dam

<sup>1</sup> Ivanov S., Webster C (2007) Measuring the impact of Tourism on Economic Growth. // Tourism Economics, 13(3); Safarova N.N. Turizm rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari (monografiya). – T., 2017. - p. 220.

<sup>2</sup> Сайдов А.Ф. Организационно-экономические основы развития и управления туризмом. Докторская диссертация. - Ташкент, 1995. - 270 с.; Тураев Б.Х. Развитие организационная-экономических механизмов управления туризмом. Докторская диссертация. - Ташкент, 2011, - 254 с.

olish tashkilotlari va turistik bazalarni tashkiliy-iqtisodiy muammolarini yechishga qaratilgan. Jumladan, menejment va marketing, kurslarni tayyorlash, innovatsion va investitsion faollik, tashqi iqtisodiy aloqalar, raqamli informatsion texnologiyalarga bag‘ishlangan.



## 2-rasm. Turizmni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir tizimini shakllanishi<sup>1</sup>

Turizmda mikrodaraja o‘z navbatida mikroiqtiadiy va mintaqaviy iqtisodiyot indikatorlari bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, mintqa va mamlakat miqyosida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlarini shakllanishiga olib keladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot va turizm o‘rtasidagi bog‘liqlik eng asosiylardan bo‘lib, turizm xizmatlarini bevosita hududlarda amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Bevosita bog‘liq hududlar aholisidaromadlarini va bandligini ta’minalashda turizmni o‘rni yuqori desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek turizm yalpi hududiy mahsulot, mahalliy sanoat va hunarmandchilik, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqish, investitsiya va qurilish, mahalliy budget va soliq tizimi, hududiy klasterlar va mahsus turizm zonalarini shakllanishida asosiy o‘rin egallaydi. mintaqani kompleks rivojlanishida turizmni o‘ziga xos o‘rni u yerda shakllangan salohiyatdir. O‘zaro bog‘liqlikniki ikki taraflama ekanligini ta’kidlash lozim. Birinchidan, mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni turizmga ta’siri, ikkinchidan turizmni mintaqani kompleks rivojlanishiga ta’siri.

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy omillarini turizm rivojlanishiga ta’siri quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- mintaqadagi investitsion va innovatsion jozibadorlik, qulay muhit;
- hududlar miqyosida turizmni boshqarish tizimini shakllanishi;
- mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalari va dasturlarida turizmni asosiy o‘sish nuqtasi sifatida aks ettirish;
- turizm subyektlarini samarali faoliyat ko‘rsatishlari uchun, ularni mahalliy resurslardan (yer, suv, gaz, elektr energiya, yoqilg‘i va boshqalar) bilan doimiy ta’minalashni tashkil qilish;
- Mintaqani turizm salohiyati va afzalliklarini keng targ‘ibot qilish;
- mintaqada turizm sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish.

Ilmiy nazariya va uslubiyot nuqtai nazardan turizmni mintaqani rivojlanishiga ta’siri mamlakatimizda deyarli o‘rganilmagan. Yigirmadan ortiq bajarilgan ilmiy tadqiqotlarda (dissertatsiyalar) asosiy obyekt sifatida mamlakat yoki alohida turizm industriyasini ko‘rilgan. Agarda aniqlashtiradigan bo‘lsak, turizm mintqa iqtisodiyotini deyarli barcha tarmoqlari va

<sup>1</sup> Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

sohalari bilan bevosita va bilvosita bog'langan holda ta'sir ko'rsatadi. Mintaqqa va turizm o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi avvalombor, ular oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni, ustuvor yo'nalishlarning uyg'unligi bilan asoslash mumkin (3-rasm).

Mintaqani kompleks rivojlantirishning maqsad va vazifalari	Turizm industriyasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari
Mintaqadagi tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish	Maxalliy turizm saloxiyati vaimkoniyatlardan unumli foydalanish
Raqobatbardoш maxsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarishni tashkil etish, ekspert salohiyatini oshirish	Turizm firmalari, mexmonxonalar, firmalami raqobatbardoшligini ta'minlash, tashqi va ichki turizmni kengaytirish
Maxalliy sanoat vaxunamandchilikni ustuvor rivojlantirish	Sayyoхlarni turli sovg'alarga bo'lgan talabini qondirish, mexmondo'stilikni shakllantirish
Mintaqaviy klasterlar va maxsus zonalami, tashkil qilish, iqtisodiy o'sish nuqtalarini aniqlash	Xududi turizm klasterlari, turistik zonalarni shakllantirish
Mintaqaviy investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorij investitsiyalarni jaib qilish	Turizm industriyasiga yangi innovatsion loyixalami olib kirish, investitsion faoliyotni ta'minlash
Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish orqali oziq ovqat xavfsizligini, toza ekologik va xalol maxsulotlarni ishlab chiqishni, tashkil etish	Sayyoхdar ovqatlanish tizimini toza-ekologik va xalol maxalliy maxsulotlar bilan ta'minlash
Mintaqada muxandislik, yo'l transporti, ijtimoiy va bozor infratuzilma ob'ektlarini barqaror faoliyatini ta'minlash, xizmatlami aholi ehtiyojlarini asosida yuqori sur'atlarda rivojlantirish	Turizm industriyasiga sayyoхlarni talab va extiyojlarini xisobga olgan holda infratuzilma va xizmatlar turlarini rivojlantirish
Aholi bandligini ta'minlash va ulami daromadlarini oshorish orqali turmush darajasi va sifatini yaxshilash	Turizmga bo'lgan talabdan kelib chiqibyangi ish joylari tashkil etish, kadrlar tayyorlash, sayyoхdarni xavfsizligini ta'minlash

### 3-rasm. Mintaqa iqtisodiyoti va turizmni rivojlantirishdagi o'zaro bog'liqlik tizimi<sup>1</sup>

Ushbu o'xshashlik mintaqadagi tabiiy-iqtisodiy, jumladan turizm salohiyatidan unumli foydalanish; sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmatlar sohasini barqaror rivojlantirish; investitsiya va innovatsion loyihalar, raqamlı texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, infratuzilma ob'ektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, eng asosiysi aholi faravonligini oshirishda ustuvor yo'nalishlar sifatida bog'langanligidan iborat.

Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini turizm bilan bog'lanishi ikkita muhim vazifa mintaqada iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasini yuqori darajaga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi (4-rasm).


Mintaqada turizm taraqqiyoti avvalom bor mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan talabni shakllanishiga olib keladi. O'z navbatida, mintaqaga tashrif buyuruvchi turistlarda mahsulot va xizmatlarga bo'lgan qo'shimcha talabni uyg'otadi. Shu sababli, turizm ma'lum darajada mintaqada sanoat, qishloq xo'jaligi, qurulish, transport va boshqa sohalarni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

To'g'ridan-to'g'ri turizmni iqtisodiy ta'siri turistik industriyadan olinadigan daromadlar va samaradorligi bilan belgilanadi. Daromadlar turizm subyektlarni faoliyati, davlat va mahalliy budgetlarga to'lovlar orqali shakllanadi.

Turistlar dam olish joylariga yetib, borishda turli ekskursiyalar tashkil etishda, o'z turar joylariga jo'nab ketishlarida ko'rsatiladigan transport xizmatlari mintaqada transport infratuzilmasini rivojlantirish rekonstruksiya qilish va qayta ta'mirlash, zamonaviy transport turlari va modellaridan foydalanish uchun turki bo'ladi. Mintaqada barcha turistik tumanlarni va shaharlarni yagona transport tizimi bilan ta'minlash asosida sayohatlarga sifatli xizmat ko'rsatilishi muhim yo'nalishlar qatoriga kiradi. Turistlarni joylashtirish sohasi, mehmonxonalar, dam olish uylari, turistik markazlar va boshqa turdag'i hordiq chiqarish maskanlari mintaqada turizm bozorini qay darajada rivojlanganligini belgilab beradi. Ayniqsa, milliy qadriyatlар, urf-odatlar, mehmondo'stlik kabi tarixdan saqlanib kelayotgan udumlarni turistlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatishda qo'llash maqsadga muvofiq. Bu o'rinda mahalliy aholi, xususiy firma

<sup>1</sup> Manba: Muallif tomondan ishlab chiqilgan.

va tashkilotlar tomonidan taklif etiladigan turli rang-barang yashash va dam olish joylarini ahamiyati oshib borishini ta'kidlash lozim.




**4-rasm. Turizmn mintaqqa iqtisodiyoti tarmoqlari bilan bog'liq tizimi<sup>1</sup>**

Mintaqaviy turizmn rivojlantirishning muhim qismi (komponenti) bo'lib turistlarni ovqatlanishi va savdo qilishlar uchun xizmatlarni tashkil qilishdan iborat. Ayniqa, mahalliy taomlar, ekologik toza va vitaminlarga boy sabzavotlar va mevalar, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari turistlarni talab va takliflarini inobatga olishda, mintaqada turizmni raqobatbardoshligini ta'minlashda va xalqaro obro' va e'tiborini yuqori darajaga ko'tarishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mintaqada turizm xizmatlariga bo'lgan talab bozor infratuzilma obyektlarini (bank, moliya, sug'urta va boshqalar) mos ravishda shakllantirish va rivojlantirishga turki bo'ladi. Kelajak turizmi mintaqada mavjud bank-moliya xizmatlarning qulayligi va sifati bilan belgilanadi.

Turizmni mintaqada ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini aholida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq (5-rasm).



**5-rasm. Mintaqada ijtimoiy soha va aholi farovonligiga turizmni ta'siri<sup>2</sup>**

<sup>1</sup> Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi.

O'zbekiston sharoitida mintaqalarda ijtimoiy masalalarini hal qilishda, jumladan aholi bandligini ta'minlashda turizmni ahamiyati juda yuqori. Turizm mehnat ko'p talab qiladigan ko'p tarmoqli soha safiga kiradi. O'rtacha xalqaro turizm sohasida 7 ta turistga 1 ta turist xodim xizmat ko'rsatadi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan raqamli texnologiyalarni, informatsion dasturlarni qo'llash natijasida ishlovchilar soni keskin kamayib ketmaydi. Chunki, turizm kelajakda ham mehnat sig'imi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Turizm sohasida yaratilgan 1 ta yangi ish o'rini iqtisodiyotni boshqa tarmoqlarida 2 ta yangi ish o'rmini yaratish bilan barobar. O'z navbatida, sohaga kiritilayotgan 1 dollar 3-4 dollarlik daromad keltiradi.

Turizmni mintaqadagi ijtimoiy ta'siri bevosita milliy qadriyatlar va urf-odatlarni mustahkamlashga qaratilganligini ta'kidlash lozim. Ushbu yo'nalishda mintaqada o'ziga xos madaniy turistik brendni shakllanishi va turistlarni taklif qilishning muhim mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

Mintaqada turizmni rivojlantirish barcha iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan turizm industriyasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, zamonaviy o'quv dasturlari va o'quv texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan, jahon standartlariga javob beruvchi hududiy ta'lim tizimini shakllantirishda o'rnak bo'lib xizmat qiladi.

Yangi ish joylarini tashkil etilishi asosida aholi daromadlarini barqaror o'sishi, inson salohiyatini oshishi, iste'mol talabini ko'payishi kambag'allikni qisqartirish va o'cta sinf vakillarini shakllanishiga olib keladi. O'rtacha sinf esa o'z navbatida turizm xizmatlariga bo'lган ehtiyojni kuchayishiga olib keladi.

Muallif fikricha, mintaqada turizmni ijtimoiy yo'naltirilganligi aholini mehnatga layoqatligini oshirish, bo'sh vaqtdan samarali foydalanish, aholi bandligini ta'minlash, daromadlarni oshirish, hududiy tafovutlarni kamaytirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy tabaqalashuvni qisqartirish, ta'lim va sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, mavjud salohiyatdan birinchi navbatda yoshlarni tarbiyalashda muhim omil sifatida qaralishi lozim.

Turizmni mintaqalarni rivojlantirishda o'ziga xos bo'lган omil raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarni qo'llash kelajakdagagi o'rnni baholash ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylanishi maqsadga muvofiq. Chunki, yaqin o'rtacha va uzoq kelajakda mintaqada turizmini rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, yangi xizmat turlarini shakllanishi uchun raqamli texnologiyalarni qo'llash oddiy zaruriyatga aylanadi. Raqamli texnologiyalarni turizmda qo'llash mintaqada iqtisodiyoti tarmoqlari uchun ham o'rnak sifatida qaralgan holda innovatsion yutuqlarni keng joriy etilishi uchun zamin yaratadi.

Raqamli iqtisodiyotni turizm va mintaqaga uchun ijobjiy tomonlaridan tashqari, salbiy oqibatlarini ham e'tibor olish zarur. Jumladan, turizm xizmatlarini amalga oshirishda birinchi navbatda inson xavfsizligini ta'minlash, mavjud informatsion texnologiyalardan maqsadli foydalanish, korrupsiya va xavf-xatarlarni oldini olish, boshqa bir qator salbiy natijalarni oldindan ko'ra bilish va qo'shimcha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab qiladi.


Turizmni raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish o'ziga xos qonuniyat va majburiy jarayonga aylanishi ko'pgina olimlar tomonidan qayd etilmoqda<sup>1</sup>. Shu sababli, mamlakat mintaqalarda turizmni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda o'rtacha va uzoq muddatda shakllanishi mumkin bo'lган raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni salohiyatini oldindan ko'ra bilish, ularni qo'llashni ijobjiy va salbiy oqibatlari, mavjud xavfxatarlarni baholash lozim bo'ladi. Raqamlashtirishni turizm sohasida nisbatan keng qo'llanishi, mintaqada iqtisodiyoti va aholisi uchun innovatsion-informatsion texnologiyalarni o'rganish, qo'llash uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. (blokcheyn texnologiyalar, yuqori tezlikdagi internet, raqamli savdo, sun'iy intellekt va boshqalar). Ayniqsa, mintaqalarda "Aqilli shaharlar", "Aqlli turistik zonalar", "aqlli qishloq", "aqlli mahalla" shakllantirish turizmni rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlar, olimlar tomonidan keng muhokama va munozaraga oid muhim nazariy qarashlardan bir mamlakat, mintaqada va turizm industriyasi o'rtasidagi munosabatlar. Ularni

<sup>1</sup> Нарзуллаева Д., Хасанова Ж. Цифровизация туризма необходимость и запономерность// Бозор, пул ва кредит, №12, 2000. - 14-21 б. <https://www.Lixeni.ru/glossary/e-commerce>

maqsad va vazifalarini, manfaatlarni qay darajada muvofiqligiga qaratilgan. Mamlakatimiz va xorijda chop etilgan ilmiy maqolalarda, rasmiy hujjatlarda iqtisodiy manfaatlarni kategoriyasi va mohiyati to‘g‘risida yagona fikr shakllanmagan. Manfaatlarni nazariyasining paydo bo‘lishiga taniqli olimlar A.Tyurgo, A.Smit, A.Gegel va boshqalar katta hissa qo‘shgan ko‘pgina nazariyalar va rasmiy hujjatlarda iqtisodiy manfaatlarning turli terminlaridan foydalanishmoqda. Ular jumlasiga milliy, davlat, tarmoq, majmualar, korxona va tashkilotlar, mintaqalardagi manfaatlarni kiritish mumkin.<sup>1</sup>

Umuman olganda, iqtisodiy manfaatlarning asosini muallif fikriga mavjud va kelajakdagi iqtisodiy munosabatlar va ehtiyojlar tashkil etadi. Iqtisodiy manfaatlarni to‘g‘risidagi nazariyalar va qarashlarni umumlashtirgan holda, ushbu tadqiqotda asosiy e’tibor mamlakat, mintaqalardagi turizm industriyasi manfaatlari qaratilgan (6-rasm)



**6-rasm. Mamlakat, mintaqalardagi turizm bozorining shakllanishining yagona tizimi<sup>2</sup>**

Iqtisodiy manfaatlarning asosini davlatni ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, uning ustuvor yo‘nalishlari, maqsad va vazifalari, yagona mamlakat miqyosida yaxlit mahsulotlar va xizmatlar bozorlarini shakllantirishdan iborat. Ushbu siyosat o‘z navbatida mintaqalarni va turizmni barqaror rivojlantirish uchun bazis bo‘lib xizmat qiladi.

Mintaqalar iqtisodiy manfaatlari o‘ziga xos ikkita yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. Birinchidan ular nisbatan mustahkam tizim bo‘lib o‘z zaxira va boshqaruva organlariga ega, turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo‘jalik subyektlarining manfaatlari bilan o‘zarob bog‘langan. Ikkinchidan, mintaqalar mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lib, ularning faoliyati yagona iqtisodiy makon shakllanishi va milliy davlat manfaatlari ustunligi bilan belgilanadi.

Mintaqa iqtisodiy manfaatlari murakkab jarayon bo‘lib, milliy davlat tarmoqlari (turizm industriyasi) manfaatlashni e’tirof etishni ko‘zda tutadi. Xorij olimlari, ilmiy adabiyotlar tahlilini umumlashtirgan holda, muallif fikriga “mintaqaviy iqtisodiyot manfaatlari u yerda yashovchi aholining hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlar bo‘lib, mavjud tabiiy-iqtisodiy, jumladan turistik salohiyatdan samarali foydalangan holda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning maqsad va vazifalaridan iborat”.

Mintaqada barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minalash, bu yerda joylashgan turizm industriyasiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar faoliyati natijalari bilan o‘zarob bog‘liq. O‘z navbatida ushbu korxonalar va tashkilotlar faoliyatini belgilovchi asosiy omil ularning iqtisodiy manfaatlari. Turizm korxonalarining asosiy iqtisodiy manfaatlari mintaqadagi mahalliy

<sup>1</sup> Blair D. Local Economic Development. London, 1990. Абдурахмонов К.Х. и др. Региональное экономика и управления. - Ташкент, 2017. - 750 с. Маршалов А.С. и др. Основы теории регионального производства. - М, 1998. – 144 с. Карпова Г.А. Экономика современного туризма. - М., 2018. - 217 с.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi.

resurslardan foydalangan holda xizmatlar va ishlab chiqarishni tashkil qilgan holda yuqori daromad olishga qaratilgan. Mintaqqa va turizm industriyasini manfaatlarining bir biriga mos kelmaslik hollari asosan resurslarni samarali va oqilona taqsimlanishi bilan bog'liq.

### **Xulosa**

Mamlakatlar uchun asosiy ustuvor vazifa barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish, ular asosida aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirishdan iborat. Bu o'rinda turizm industriyasini o'ziga xos ahamiyatga ega. Mintaqada "lokomotiv va o'ziga xos o'sish nuqtalari" rolini o'ynashi mumkin bo'lgan turizmga hozirda va kelajakda alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. O'z navbatida, mintaqada faoliyat yuritadigan turizm subyektlarining tarkibini takomillashtirish, ularni diversifikatsiya qilish, mavjud salohiyat, ichki va tashqi talabdan kelib chiqqan holda muvofiqlashtirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Turizm va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'lijni ilmiy nazariy asoslarini o'rganishda obyektiv va real informatsion ma'lumotlar bazasini shakllantirish bo'yicha uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishdan iborat. Ayniqsa, mintaqqa va turizmni o'zaro bog'liqlik darajasini tahlil qilishda bir qator ma'lumotlarni yo'qligi, ushbu jarayonni chuqurroq tahlil qilish va boshqaruv chora-tadbirlarini ishlab chiqishda to'siq bo'lib qolmoqda. Mintaqalar kesimida turistik axborotlar platformasini, ya'ni mintaqaviy turizm statistikasi va hisobotini yuritish bo'yicha ilmiy uslubiyotlarni ishlab chiqish zarur. Hozirda O'zbekistonda mintaqaviy turizm statistikasi shakllanmagan bo'lib, eng kerakli ma'lumotlar (eksport va import, turizm turlari bo'yicha daromadlarni shakllanishi, turizm industriyasida band bo'lganlar soni, turizm bilan sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmatlar o'rtasidagi bog'liq zanjiri va boshqalar) faqatgina alohida mahsus so'rovnomalar orqali aniqlanishi mumkin. Buning uchun xalqaro standartlarga mos keluvchi sotsiologik tadqiqotlar (so'rovnama) o'tkazishning uslubiyotini ishlab chiqish va uni rasmiy tasdiqlash masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi.

Ushbu yo'nalishda yana bir muhim ilmiy qarashlardan biri turizm statistikasini real talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtiridi, yangi bir iqtisodiy kategoriya maqsadli turizm statistikasini olib borishda eng muhim va amaliyot uchun ahamiyatli bo'lgan turizm maqsadlarini alohida ko'rsatkichlar bilan baholanishi zarur, deb o'yaymiz. Ular bo'sh vaqtdan samarali foydalanish uchun dam oluvchilar, davolanish va sog'lomlashtirish maskanlariga boruvchilar diniy joylar va ziyoratgohlarga tashrif buyuruvchilar, mamlakatdan tashqarida va ichkarisida hududlarda tashkil etilayotgan turli tadbirlar (xalqaro, respublika, mintaqqa kesimidagi forumlar, konferensiylar, seminarlar va boshqa uchrashuvlar) da ishtirop etuvchilarni qamrab oluvchi turistik oqimdan iborat.

Taklif etilayotgan maqsadli turizm kategoriyasi va uni baholash ko'rsatkichlaridan bevosita mamlakat va mintaqalarda turizmga bo'lgan talab va taklifni aniqlash, maqsadli chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Umumi turizm oqimini rasmiy aniqlashda ishlatalidigan sayyoхlar sonini o'quv jarayonlarida ishtirop etuvchilar, qarindosh va tanishlarini borib ko'ruchilar, xarid qilish va tijorat maqsadida boshqa mintaqalarga boruvchilar, xizmat doirasida tashrif buyuruvchilar ma'lum darajada turizmni o'rganishda ayrim noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Umuman, yuqorida ko'rib o'tilgan mintaqada turizmni rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy nazariyalar, turli uslubiy qarashlar, uni takomillashtirish bo'yicha berilgan muallif takliflari mamlakatimizda jumladan, uning mintaqalarida turizmni barcha tarmoqlar va sohalar bilan o'zaro chambarchas va zanjirsimon bog'liqlikda tahlil qilish va aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga qaratilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Багалюбов В.С. Экономика туризма. - Москва, Академия, 2005. - 4 с.
2. Ivanov S., Webster C (2007) Measuring the impact of Tourism on Economic Growth. // Tourism Economics, 13(3);

3. Safarova N.N. Turizm rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari (monografiya). – Т., 2017. - p. 220.
4. Сайдов А.Ф. Организационно-экономические основы развития и управления туризмом. Докторская диссертация. - Ташкент, 1995. - 270 с.;
5. Тураев Б.Х. Развитие организационная-экономических механизмов управления туризмом. Докторская диссертация. - Ташкент, 2011, - 254 с.
6. Нарзуллаева Д., Хасанова Ж. Цифровизация туризма необходимость и запономерность// Бозор, пул ва кредит, №12, 2000. - 14-21 б.  
<https://www.Lixeni.ru/glossory/e-commerce>
7. Blair D. Local Economic Development. London, 1990.
8. Абдурахмонов К.Х. и др. Региональное экономика и управления. - Ташкент, 2017. - 750 с.
9. Маршалов А.С. и др. Основы теории регионального производства. - М, 1998. – 144 с.
10. Карпова Г.А. Экономика современного туризма. - М., 2018. - 217 с.